

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2005-yil 25-aprel - 1 may

N:17 (66506)

Mana, yurtimizga bahor kelib, tabiat ham jonlanib qoldi. Shahar va qishloqlarimiz yashil libosga burkanib, kundankunga chiroy ochib bormoqda. Obodonchilik ishlari ham avjida. Kimdir gul ekkan, kimningdir qo'lida daraxt ko'chati. Maktabimiz xo'jaligidagi ham ish qizigandan qizigan. 70 sotixli maydonni obod qilib, bog'u-roqqa aylantirishni biz yuqori sinf o'quvchilar o'z zimmamizga oldik. Qolaversa, hademay

## BITIRUVCHILAR BOG'I


maktabni tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yamiz. Biz yaratgan bog' uka va singillarimizga esdalik bo'lib qolishi uchun astoydil mehnat qilyapmiz. Har kuni darsdan keyin boqqa borib, atroflarini o'rab, tartibga keltiryapmiz. V.Jo'rayeva, X.Alinbayeva, Z.Razzoqova, R.Ismoilova, U.Yodgorova kabi



dugonalarim bilan birga bog'imiz atrofiga chiroyli gullar ekip c h i q d i k . Yigitlarimiz esa m e v a l i daraxtlarning ko'chatlarini e k i s h d a i l g a r i l a b k e t i s h d i . Hozirgacha ekkan nihol va

gul ko'chatlarimiz soni 570 tupga yetdi. Ustozlarimiz ko'magi va maslahatlariga tayanib yaratgan bog'imizni «Bitiruvchilar bog'i» deb nomladik. Maktabni bitirish arafasida bog'imiz parvarishini hozir 10-sinfda tahsil olayotgan uka va singillarimizga topshirib ketamiz. Nasib bo'lsa, sinfdoshlarning 10 yillik uchrashuvini ham o'z bog'imizda o'tkazamiz.

Nodira JONIBEKOVA,  
Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani,  
G'afur G'ulom jamoa xo'jaligi.



Viloyatimizning barcha ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi endilikda bizning maktabimizda ham jonli burchak tashkil etildi. Hozircha akvariumda mayda baliqchalar va

## AKVARIUMDA BALIQLAR


qafaslarda to'tiqushlar boqilmoqda. Tez kunlarda ular safini toshbaqa, ilon, parrandalar bilan boyitamiz. Jonli burchagimiz ona tabiatga bo'lgan mehrimizni yanada oshirishga xizmat qilyapti. Shuningdek, nomlari qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklarni himoya qilishga undayapti, ekologik muammolar to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarimizni yanada boyityapti.

Maktabimizning tirik burchagini «Yosh biologlar» to'garagi a'zolari nazorat qiladi. Tabiatni asrashni, jonivorlarga mehribon bo'lishni astoydil o'rganayotgan biz bolalarga, albatta ona tabiat ham o'z ne'matlari hamda mo'jizalarini darig' tutmaydi.

## SUMALAK

Sumalak bu sir, malak-Farishtalar taomi.  
Niyat qilib qo'zg'agin,  
Ko'nglingga tugib nomin.  
Tansiq, mazza va shirin,  
Yesang rohat qilasan,  
Diling xushnud, ko'ngling chog',  
Doim sog'lom bo'lasan.

Sevara MUHAMMEDOVA,  
Narpay tumanidagi 1-o'rta maktabning  
6-«B» sinf o'quvchisi.



16- ixtisoslashgan maktab-internatining 8-«A» sinf o'quvchisi.

Zilola RAHMONOVA,

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi

8-«A» sinf o'quvchisi.

*Ustoz yozadi*

«O'rikzor» dahasi Akmal tumanidagi yangi, obod mahallalardan biridir. Mahalla bolalari ana shu daha qurilishi bilan birga bunyod etilgan 297-maktabda tahlil olishadi. Maktabda ularning har bir kuni maroqli, mazmunli o'tadi. Chunki bu maskanda deyarli har kuni biror bir sport bellashuvi, tadbir, tantana bo'ladi-da.

## MAKTABDAGI BAYRAM- SHIRIN XOTIRA

Yaqinginada Navro'z bayramini varraklar sayli-yu asfaltga rasm chizish bellashuvlari bilan, bahor taomlari ko'rak berib turgan to'kin dasturxon atrofida keng tantana qilishgandi. Tadbir taassurotlari va hayajoni uning ishtirokchilari-yu mehmonlari qalbini tark etmay turib, maktab yana bayramona tus oldi. Go'zal milliy liboslar kiygan 11-«A» hamda 11-«B» sinf qizlari o'zaro bellashdilar. «Qizlar davrsasi»ni tomosha qilgani ko'plab mehmonlar, ota-onalar yig'ilishdi. Bir-biridan go'zal, chaqqon, zukko qizlarning chiqishlarini maroq bilan tomosha qilishdi. Hamda mana shunday tadbirdarga, shuningdek, maktabda amalga oshirilayotgan xayrli ishlarga bosh-qosh bo'layotgan maktab rahbari Zulkumor Azimovaga chin dildan minnatdorchilik bildirishdi.

*Lola SAMATOVA,  
Maktab ma'naviyat va ma'rifat ishlari  
bo'yicha direktor o'rinnbosari.*

Qadrli «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Ushbu maktubni Buxoro viloyatining olis Qorako'l tumanidagi 6-o'rta maktabdan yo'llayapmiz. Maktabimiz Sho'robod qishlog'i hududida joylashgan bo'lib, binomiz tomining bir qismi shifer bilan yopilmagan, ko'pgina sinf xonalarimiz polsiz edi. Nam, zax xonalarda o'tirib tahlil olishga majbur bo'lardik. Hayriyat, baxtimizga Xayrulla tog'adek insonlar bor ekan. Ularning sa'y-harakatlari, yelib-yugurishlari tufayli bu muammo o'z yechimini topdi. O'tgan o'quv yilida 4 ta sinf xonasiga pol qilindi. Yaqinda Xayrulla tog'a yana bir savobli ishga qo'l urdilar. «Toshkent» shirkat xo'jaligi hududidagi qarovsiz holda yotgan

dala shiyponi binosi maktabimiz ixtiyoriga topshirildi. Xayrulla tog'a Sho'robod qishlog'i aholisi bilan birga shu binoni buzib, qurilish jihozlarini maktabga

Sharif Jalilov, Xolmurod Jumayev, Inoyat Ochilov, Ixtiyor Bozorov, Qahhor Qorayev, Murtazo Davronov, Jalol Qutliyev, Nasip Nurmatov, Farhod

*Ibrat*

minnatdormiz.

Le kin

bizni qiyayotgan yana bir muammo bor: u ham bo'lsa sinf xonalarining yetishmasligi, sport zalining yo'qligi. Maktabimiz uchun yana 5-6 ta sinf xonasini qurib berishsa, ayni mudda o bo'lardi-da?

Yana biz yoshlarning puxtabilim olishimiz, ilmiy yoshlarni bo'lib kamol topishimiz uchun bor kuchg'ayrati va imkoniyatlarini ayamayotgan Xayrulla tog'a Ro'ziyevning xizmatlari munosib taqdirlansa, u kishi Xalq ta'limi fidoyisi sifatida e'zozlansa, behad quvonardik.

Baxtimizga shunday insonlar bor bo'lsinlar va ularning saflari yanada kengayaversin!

*Maktab o'quvchilari nomidan: 5 - «A» sinf o'quvchilari va sinf rahbari B.HASANOV.*

## SERHIMMAT INSONLAR



keltirishdi. Binomiz tomi to'liq shifer bilan yopildi. Yana 6 ta sinf xonasiga pol qoqildi. Bu xayrli ishlarni amalga oshirishda qishloq ustalaridan qilishdi. Buning uchun ulardan behad

Rahmatov jonbozlik ko'rsatishdi. Shuningdek, ota-onalarimiz, ustozlarimiz ham sidqidildan mehnat qilishdi. Egamkul Beshimov,

*Maktab o'quvchilari nomidan: 5 - «A» sinf o'quvchilari va sinf rahbari B.HASANOV.*

Ehtimol yuqoridagi jumlalar sizni taajjubga solar.

*Muammo*

Bu biringina diktantni baholash ballari. Ha, adashmadingiz, yozma ish, diktant, MST deganlari bir nechta ustunga binoan baholanadi. O'qituvchilikning bunday mashaqqatlaridan men xabardorman. Chunki onam - Shoira Xolmatova Jizzax shahridagi 10-o'rta maktabda boshlang'ich sinfda dars beradi.

## SAVODXONLIGIGA XATOLARIKA? TINISH BELGILARIKA?..



Har kuni uya 60-70 talab daftari olib kelib, xatolarini tekshiradi. Reyting tizimi joriy etilgani bois hisob-kitob chunonam ko'pki, bankdagi yillik hisobotdan-da mashaqqatlari. Har bir o'qituvchining qo'lida elektron hisoblagich bor. Onam ishlaydigan maktabga borganimda o'qituvchilar yozuv-chizuv ko'pligidan nolishayotganining guvohi bo'laman. Axir o'qituvchining vazifasi bolaga ta'lim berish emasmi? Bergina diktantni besh qismga bo'lib baholayotgan o'qituvchilar o'z ustida ishlashga vaqt-toparmikin?

*Nargiza XOLMATOVA,  
Jizzax shahridagi Tibbiyot kollejining 1-kurs talabasi.*


## USTOZLARNING «O'NG QO'LI»

Maktab «Kamolot» sardorlar raisi Firdavs Rahmonovni ustozlari va maktabdoshlari shunday atashadi. Chunki u maktabda faoliyat yuritayotgan o'quv-tarbiyaviy, tashkiliy, mehr-muruvvat, ekasan va mehnat bo'limlarini ishlarni nazorat qiladi. Firdavs boschchilik qilayotgan kengash a'zolari yuqori sinf o'quvchilari faoliyatini boshqarish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish, yurish-turishlarini nazorat qilish kabi vazifalarni qoyillatib bajarishyapti. Ular tashabbusi bilan tashkil qilingan «Zakovat» hamda «Divat» klublari o'quvchilarimizning eng sevimli maskaniga aylangan. Firdavs

maktabda o'tkazilayotgan tadbirdaru shanbaliklarning tashabbuskorin bo'libgina qolmay, o'zi ham astoydil mehnat qilib, boshqalarga namuna bo'ladi.

Shunday mas'uliyatlari, fidoyi ko'makchilarimiz borligidan biz ustozlar hamisha faxrlanib yuramiz va ularga chin dildan saboq berishga harakat qilamiz.

*Mamlakat HAYDAROVA,  
maktab direktori, Buxoro shahri.*



Bu gaplar aslo yolg'on emas. Bizning ona tili va adabiyot muallimamiz Muhabbat opa To'qliyeva sinfimizda ana shunday partani ajratganlar. Hozir bu partada sinfdoshimiz Xurshida Xayrullayeva o'tiribdi. Negadir partaning sehri bordek, u yanada a'lachi bo'lib ketyapti. Yil davomida bu partada faqat a'lo baholarga o'qiganlar o'tiradi. Yaqinda sevimli maktab maskanimizda ham so'nggi qo'ng'iroq jaranglaydi. Ammo yil davomidagi toliqishlar bizni bezovta

## SINFIMIZDA NAVOIY PARTASI BOR

qilganicha yo'q. Chunki maktabimizda bir-biridan bilimli, mehribon ustozlarimiz ko'p. Ularning hamma darslari qiziqarli va maroqlidir. Ayniqsa, Muhabbat opamizning darslariga juda o'rganib qolganmiz. Turli-tuman usullarga boy ustozning har bir darsidan olam-olam ma'no topamiz. Ular o'zlarining 26 yillik pedagogik ish faoliyatlarida faqat shirinzo'zlikni, mehribonlikni odat qilgan ekanlar. Ustoza qancha shogirdlari bor. Yaqinda tuman olimpiadasining adabiyot fanida ham Muhabbat opaming o'quvchilaridan Sanobar Yunusova yuqori o'rinni egallab qaytdi. Maktabimizda shunday zukko o'qituvchimiz borligidan doimo ko'ksimiz faxrga to'lib yuradi.

*Iroda ADIROVA,**Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 34- maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi.*

Maktabdan qaytgandim hamki, telefonimiz jiringlab qoldi. Rejissyor opamiz meni allaqanday ko'rsatuvga taklif qildilar. Xursand bo'lib ketdim va oyim bilan tezda yetib bordik. U yerda bir gapirib, o'n kuladigan

124 nafar o'g'il-qizning biri ekanligimni eshitganimda, dunyoda menden baxtliroq inson yo'q edi. Amerikadagi..... mactabida tahsil ola boshladim. Bizning maktablarimizda 17ta fan o'tilsa, ular o'qiydigan fanlar soni atigi 7-8ta ekan.

o'zbekistonlik ekanligimni eshitib, rosa ajablanishdi. Chunki ular yurtimiz haqida umuman tasavvurga ega emas ekanlar-da. Men ularga yurtimiz, tariximiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz haqida

## AMERIKADAN KANADAGA YO'L

quvnoq bir qiz bilan tanishib qoldim. Yoshimiz orasidagi farq ancha katta bo'lsa-da, men bilan xuddi o'z tengurlaridek gaplashdi. Ismi Ozoda ekan.

Uning xushchaqchaqligiga havas qilib turgandim, AKSELS jamg'armasi tomonidan 3 turda o'tkazilgan sinovlarda n muvaffaqiyatli o'tib, grand asosida chet elda o'qish imkonini qo'lga kiritganini bilgach, unga bo'Igan mehrim yanada ortdi. Chet eldag'i hayoti haqida ko'proq narsalar bilgim kelib, savollarga «ko'mib tashladim».

-Poytaxtimizdagi 178-maktabning 10-sinfida o'qib yurGANIMDA o'z bilimimni bir sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Amerika elchixonasi tomonidan o'tkazilgan AKSELS sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan

O'quvchilar ana shu fanlardan birini tanlab, o'sha fan bilan chuqurroq shug'ullanishar, boshqa

so'zlab berdim, o'zbekona liboslarimizni kiyib, milliy taomlarimizdan pishirib berdim. Tan olishim kerak, ular ham mezonlikni o'rniga qo'yisharkan. Biz

kinolarda, multfilmlarda ko'rgan joylarni sayr qildirishdi. Saylgholarida ertaklar olamiga tushib qolgandek his qildim o'zimni. Lekin yaltiragan narsaning hammasi ham oltin bo'lavermaganidek, bu o'lkanning menga yoqqan va ma'qul bo'lmagan jihatlari ham bo'ldi.

16 yoshdan mustaqil deb hisoblanadigan yoshlarining darsdan bo'sh yaqtalarida gazeta va jurnallar sotib, enagilik qilib, benzin quyi shahobchalarida, restonarlarda mehnat qilib, mustaqil pul



fanlarga esa kirishlari majburiy emas ekan. Lekin jismoni tarbiya darsiga alohida e'tibor berisharkan....

Bizlarni bittadan amerikalik oilalarga joylashtirishdi. Boshqalarni bilmadimu lekin mening «oilam»dagilar juda mehribon odamlar ekan. Dastlab mening



### Anvar QOSIMOV:

-Darsning oxirigacha yuragim siqilib ketadi. Nima uchun deyapsizmi? Chunki darslarimiz zerikarli o'tadi. Maktabimizda malakali o'qituvchilar bor albatte, haftada bir martagina bo'ladigan darslariga ayrim ustozlarimiz chunonam tayyorlanib kelishadiki, vaqtimiz tez o'tib, qo'ng'iroq chalinganini ham sezmay qolamiz. Har holda darsdan qochib, kompyuter xonalari-yu, billyardxonalaridan ularning darslari yaxshiroq. Menga ona tili, adabiyot, geografiya, fizika fanlari juda yoqadi. Qolganlari esa...



### Umid SOBIROV:

- Hamma o'g'il bolalar ham darsdan qochavermaydi. Masa'an, men shu vaqtgacha birorta ham darsdan qochmaganman va qochmayman ham. Hamma darslarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilaman. To'g'ri, ba'zi fanlardan o'qitadigan ustozlarimiz darslarni kitobiy tilda o'tishadi. Bundan ba'zi bolalar zerikishadi. Ustozlarimiz darslarini aniq, hayotiy dalillar bilan o'tishca, maqsadga muvofiq bo'lardi.

### Ibrohim BOLTABOYEV:

- O'quchining darsdan qochishiga sabab, o'qituvchilarning zerikarli dars o'tishlarda deb bilaman. Agar darslarni bahs-munozarali qilib o'tishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

### Umida YO'L DOSHEVA:

- Ustozlarimiz o'z darslarni qiziqarli o'tishga harakat qilishadi, ammo o'g'il bolalarimizning xayollari bir joyda emas. Ular gohida ko'chaga qarab o'tirishsa, gohida bir-birlari bilan gaplashib o'tirishadi. Bunda albatte darsning qiziqligi qoladimi?

DARSlardan BEZORMISIN!

Hammamizga ma'lumki, matabda darslar soat 8-00 da boshlanadi. Birinchi darsda hamma bo'lsa, lekin kunning yarmiga kelganda, ya'ni darslarining 5-6-soatlarigacha o'quvchilarning ko'pchiligi «quyonning rasmini chizishadi», ya'ni, ko'p bolalar darslardan qochib ketishadi.

Buning asosiy sababi nimada? Darsning zerikarli bo'lismi yoki o'quvchilarni matabda o'qishdan shunchalik zeriktirgan ustozlarning darsimi? Keling, yaxshisi bu haqda ularning o'zlaridan so'raymiz. Bilasizmi, o'quvchilar negadir o'zlarini ism-familiyalarini yashirib yoki matabini yozmasligimizni iltimos qilishdi. Buning sababi esa...

Xullas, darsdan nega qochasiz, degan savolimizga quyidagicha javob oldik:

### BOBUR:

-Uyimizga ertaroq borgim keladi. Darslarning oxiriga kelib, hamma charchab qoladi. Mening ham darsning oxirigacha qolib, buning ustiga, matabni o'zida uyga vazifalarni tayyorlab ketadigan o'quvchilarga havasim keladi. Yana bir tomoni: men darsdan qochib, to'g'ri uyga boraman, boshqa bolalarga o'xshab kompyuter xonalari-yu, kino-teatr larga borishga hushim yo'q.

*Mustaqil yurt farzandlari iqtidorlidir*

topishlari

menga yoqdi. Lekin ularning kiyinsh tarzi, kattalarga nisbatan hurmat, ehtirom ko'rsatmasliklari menga ma'qul bo'lmadi. Bizdagi ibo va hayo bilan ularning orasida osmon va yerchalik farq bor ekan.

Men Amerikada ham o'z bilimimni sinab ko'rishga ahd qildim. Ingliz tilida yozgan inshoim yuqori baholandii va grand asosida Kanada shahriga yo'llanma oldim...

Bilim borasida nafaqat o'z yurtida, o'zga yurtlarda ham ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan Ozoda opa Ro'zmetova yaqinda Amerikadan bir olam taassurotlar bilan qaytib keldilar. Hozirda Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida olayotgan bilimlarini yurtimiz ravnaqiy yo'lida sarflash niyatidalar.

Men hali ancha kichikman. Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi 14 - maktabning 4-sinf o'quvchisiman. Lekin ulg'aygach, Ozoda opamdek o'z bilimim orqasidan jahon kezsam deyman.

Munisa KOMILOVA.

### Iroda ISMOILOVA:


-Agar qiz bolalar ham darsdan qochadigan bo'lsa, uyat bo'lar. O'g'il bolalarga kelsak, ular dangasa va o'inqaroq, ba'zilarini olmaganda darslarga umuman qiziqishmaydi ham. Darsdan qochadigan bolalarga maslahatim shu: vaqtinuzni behuda o'tkazgandan ko'ra, bilim olganingiz ma'qul. Chunki odam kelajagini ham o'ylash kerak. Axir kompyuter o'yinlari bilan oila tebratib bo'lmaydi-ku.

### Yulduz TO'LAGANOVA:

-Eshitgan quloqqa yaxshimas-u, lekin men ham darslardan qochaman. Umuman olganda, menga hamma fanlar yoqadi. Uyga vazifalarni bajarmay kelganimdagina darslardan ketib qolaman. Biroq, hamma fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilaman. Bizda ko'proq o'g'il bolalar darsdan qochishadi. Ularga aytadigan gapim: oz bo'lsa-da, oldingizga qo'yilgan burch va mas'uliyatni his qiling. Turli xil o'yinlarga, diskoteka-yu, kinofilmlarga tushishga hali vaqtinuz topiladi, ammo hozir o'qish kerak. Hech bo'limasa, ota-onalarinigiz sizga ishonib sotib olib berayotgan kitob-daftari, turli bashang kiyimlar haqqi, olayotgan baholaringizni oqlasangiz bo'larmidi...

*Mana, tengoshlaringizni nima uchun darsdan qochishlari «sirlarini» bilib oldingiz. Matabingizda ana shunday bolalar bormi? Bizga ular haqida yozib yuboring.*

Kamola ERGASH qizi.



### Mashhur kishilar farzandlari



Angliyalik mashhur futbolchi Devid Bekxem sportdan topgan pullarini ayamasdan farzandlariga sarflar ekan. U o'g'illari Bruklin va Romeogoga haqiqiy «Luna-Park» sovg'a qilibdi. Yaqinda esa 5 yoshli Bruklinga 36 ming yevro turadigan mini avtomobil olib beribdi....



Xo'sh, o'zbek futbolining yorqin yulduzi, el sevgan charm to'p ustasi Mirjalol Qosimov farzandlariga nimalar sovg'a qilishni yoqtirar ekan-a? Mashhur futbolchimiz ham saxiylikda Bekxemdan qolishmaydi. Farzandlarining buguni va ertasi uchun barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilib, kelajak hayotlariga zamin yaratmoqda. Uning uch nafar farzandi bor: Mirkamol, Mohira va Mirjamol.



Mirkamol bu yil 14 yoshga, Mohira 12 yoshga, Mirjamol esa 10 yoshga to'ladi. Mirkamol va Mirjamol Qosimovlar otasining izidan bormoqchi. Ya'ni, ularda ham futbolga bo'lgan qiziqish katta.



Mirkamol Toshkentdag'i «Oqtepa» klubining o'rinosarlar jamoasi hisoblanmish «Krasniskiy» tarkibida to'p suradi. Mirjamol poytaxtimizdagi futbolga ixtisoslashgan Respublika oliy mahorat maktabi («Chig'atoy»)da charm to'p sirlarini o'rganmoqda. Bolalar, keling, yaxshisi Mirkamol va Mirjamolning suhbatiga qulqoq tutaylik.



Men Mirkamol **QOSIMOV** 1991-yil, 23-iyulda tug'ilganman. Ayni chog'da o'zim o'ynayotgan «Krasniskiy» jamoasining Toshkent shahar championatida oldingi o'rnlarda yurishiga hissa qo'shib kelmoqdaman.



Jamoada xuddi dadam kabi hujumchilarni to'p bilan ta'minlab beraman. Futbolga meni

Kechqurun esa oynayi jahon orqali futbol tomosha qilaman.

Futbol o'ynab charchasam, ertak kitoblar o'qiyan. Endilikda ingliz tilidagi ertaklarniyam mutolaa qilyapman.

Dadam hozir Qashqadaryoning «Mash'al» jamoasida to'p suryaptilar. Bizga tez-tez



## MIRKAMOL VA MIRJAMOL



dadam qiziqtirmaganlar. O'zim sportning bu turini jon-dilimdan yaxshi ko'rganim bois klubga olib boring, deb turib oiganman.



Shundan so'ng murabbiylar Doniyor aka Nortojiyev va Farhod aka Abdurasulov meni ko'rikdan o'tkazishdi. Niroyat, futbol matabiga qabul qilishdi.



Futbolchining asosiy vaqt safarlarda o'tadi. Dadam Birlashgan Arab amirligining «Al-Shabab» jamoasida, Rossianing «Alaniya», «Krilya Sovetov» klublarida to'p surgan paytida bizlarni ham olib ketgandilar.



Biz u yerda oilamiz bilan birga yashadik. Ko'p muddatli s a f a r d a n qaytganimizdan so'ng, o'rtoqlarimiz: BAA mamlakatida sizlar arab tilida o'qidinglarmi, deb so'rashdi.



BAAda biz kabi Mustaqil d a v l a t l a r hamdo'stligidan borib yashayotgan oilalar ko'p ekan. Ularning farzandlari uchun rus maktablari qurilgan bo'lib, singlim ikkimiz shu yerda ta'lim oldik.



U yerda ham futbol mashg'ulotlariga qatnadim. Bu mamlakatda ob-havo haddan tashqari issiq bo'larkan. Biz yashagan Dubay shahrida kunduzi deyarli tinchlik hukm suradi. Tushdan keyin hamma qimirlab qoladi. Futbolchilar ham kechga yaqin mashqlarini boshlashadi. Men «Al-Shabab»ning bolalar jamoasi tarkibida mashg'ulotlarda bo'ldim. Mashqlarimiz asosan kechqurun o'tardi. Hammasi yaxshi edi-yu, biroq bobom va buvimni, mahalladagi o'rtoqlarimni sog'inishim yomon edi-da...



Hozirda men poytaxtimizdagi 180-maktabda o'qiyapman.



Darslarga, futbol mashg'ulotiga borishdan tashqari ingliz tilini ham o'rganib boryapman. Uydagilar bo'sh vaqtimizni behudaga o'tkazmaslikni o'rgatishgan. Bo'sh vaqtimizda ko'chadagi o'rtoqlarim bilan to'p tepaman.

qo'ng'iroq qilib mashg'ulotlarimiz, matabdagi darslarimizni so'raydilar. Toshkentga kelganlarida esa murabbiylarimiz bilan uchrashmay ketmaydilar.

- Men esa **Mirjamol QOSIMOVMAN**. 1995-yil, 29-sentabrda tug'ilganman. Men tug'ilgan vaqtimda dadam «Alaniya»da to'p surayotgan ekanlar. Chaqaloqligimdan dadamni bir-ikki oy lab ko'rmaslikka ko'nikib ketganman. Shuning uchun ham oyijonim, buvi va buvajonlarimiz bizni tarbiyamizga jiddiy qaraydilar.

Sport oilamiz uchun hayot matabiga aylangan. Men Mirkamol kabi futbolga emas, ko'proq karate mashqilariga qiziqaman. Karate bo'yicha mamlakatning bir necha bor championi bo'lganman. Ikkinci mashg'ulotim futbol.

Karate bo'yicha O'zbekiston championati va kubogi bahslarida bir necha bor g'olib bo'ldim. Yaqinda karate bo'yicha BAA davlatining ham championi bo'ldim. Karatedagi yutuqlarim bilan cheklanib qolmasdan hozir dadamning birinchi ustozi Yuriy Gospadarchuk qo'lida futbol sirlarini ham o'rganib kelyapman. Ustozlarimning mashg'ulotlari juda qiziqarli. Charchaganim bilinmaydi. Murabbiylar suzish bilan shug'ullansang, sog'lom bo'lsan, gavdang yaxshi rivojlanadi, deyishadi. Shuning uchun ham akam va singlim suzishga ham boramiz. Bu ham bizning eng sevimli sport turlarimizdan biri hisoblanadi.

Maktabda ingliz tili va jismoniy tarbiya fanlarini yoqtiraman. Bo'sh vaqtimizni sevimli mashg'ulotlarimizdan yana biri - krossvordlar yechish bilan o'tkazamiz. Akam ikkimizning kelajakdag'i orzumiz - xuddi dadamizdek mohir to'purar bo'lib, «Paxtakor» va milliy terma jamoa tarkibida to'p surish.

Akmal ABDIYEV,  
yozib oldi.

## ARALASH TEST

1. Kelajakda polvon bo'imoqchisiz, buning uchun qaysi sport turi bilan shug'ullanasisiz?

- A) Yengil atletika;
- B) Tosh ko'tarish;
- V) Suv sporti.



2. O'zbekistonda karate Federatsiyasining prezidenti kim?

- A) Mirjalol Qosimov;
- B) Vladimir Gasanbekov;
- V) Nurxon Nafasov.



3. Olimpiada o'yinlari belgisidagi halqa nechta?

- A) 4 ta;
- B) 5 ta;
- V) 6 ta.




4. Iroda To'laganova qaysi sport turi ustasi?

- A) Tennis;
- B) Suzish;
- V) Stol tennisi.


5. «...tanda sog'lom aql» ushbü jumlani to'ldiring:

- A) Yaxshi;
- B) Kuchli;
- V) Sog'.



6. Futbol bo'yicha jahon championati qaysi yili bo'lib o'tdi?

- A) 2001-yil;
- B) 2002-yil;
- V) 2003-yil.



7. Ushbu qatordan boks sport turi bilan shug'ullanuvchini nomini ko'rsating!

- A) Anvar Soliyev;
- B) Muhammad Qodir Abdullaev;
- C) Saydali Yo'ldoshev.

8. Karatechilarining jang o'tkazadigan gilaming nomi nima?

- A) Ring;
- B) Musikio;
- V) Tatami.



Tuzuvchi: Nasiba MUTALOVA.

## SHIFOKORLARGA RAHMAT!

Maktabdan kelardimu, dangasaligim boshlanardi. Uyqu bosib, boshim og'riyverardi. Biror ishga qo'lim bormasdi. Hatto ko'chaga chiqib o'ynashga ham holim kelmasdi. Kitobni qo'limga olsam, mudroq bosaverardi. Kuz, qish oylarida esa boshim kasaldan chiqmasdi.

Bundan xavotirlangan oyijonim meni shifokor huzuriga olib bordilar. Ular hech qanday kasalim yo'qligini aytib, bizni xursand qilishdi. Farzandingiz sport bilan muntazam shug'ullansin, biror sport turini tanlasinda, mashg'ulotlarga qatnasin, dedilar. Men sportning suzish turini tanladim va mashg'ulotlarga muntazam qatnay boshladim. Shu tariqa dangasalik, tanballik kasalidan qutuldum. Hozir kasal bo'lishga ham vaqtim yo'q. Oila a'zolarimiz, ayniqsa, oyijonimning quvonchlari cheksiz. Salomatligimni o'z vaqtida qaytarib bergan shifokorga chin dildan rahmat aytaman. Do'stlarimga ham sport bilan oshno tutinishni maslahat beraman.

Gulira'no MUSAYEVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
186- maktabning 3- sinf o'quvchisi.

Ushbu ruknni tashkil qilganimizdan buyon siz aziz qizlarjonlardan juda ko'plab maktublar oldik. Bu nimaning dalolati? Bu o'zingiz va dugonalaringiz salomatligiga, axloq-odobiga befarg emasligingiz dalolatidir.

Bugun ham sizlarni ayrim tengdoshlaringizning bu boradagi mulohazalari bilan tanishtirishga jazm etdik. O'qing, muhokama qiling, fikrlaringiz bilan o'rtoglashing.

Nigora MIRSOIDIQOVA,  
poytaxtdagi 315 - maktabning 9 - «V» sinf o'quvchisi.

Sinfimizda Komila ismli bir qiz bor. A'lochi, jamoatchi bo'lgani uchun uni hamma hurmat qildi. Yaqinda uning qanday qilib a'lochi bo'lib yurganining siri fosh bo'ldi. Qanday, deysizmi? Keling,

Kundaligingni olib kel, senga besh baho, deydi-da, qolgan o'quvchilardan uy vazifasini so'ray boshlaydi. Keyingi darslarda ham u xoh metematika bo'lsin, xoh ingliz tili, yana shu

gapiraqol... Hammamizning qulog'imiz Komilada edi. U esa jum. Oyna tarafga biroz tikilib turdi-da, yugurgancha qizarib sinfdan chiqib ketdi. Keyin bilsak u

## DARSGA HAMISHA «TAYYOR» QIZ

yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay:

Komila quyisi sinflarda a'lo o'qigan uchun o'qituvchilar mehrini qozongan, «a'lochi qiz» deya nom chiqarishga ulgurgandi. Lekin keyingi paytlarda uning yurish-turishi ancha o'zgarib qoldi. O'ziga o'xshagan biri kki dugonalari atrofiga yig'ib oladi-da, turli seriallar haqida gaplashib o'tirishadi. Gohida suhbatlari shu darajada qizib ketadiki, hatto ustozimizning sinfga kirib kelganlarini ham payqamay qolishadi. Chaqqonlik bilan o'z o'miga o'tirib olgan Komila darhol kitob-daftarini ochadi-da, o'tgan darsni men gapirib beray, deya qo'lini baland ko'tarib turaveradi. Ustozimiz esa, yo'q, sen o'tir qizim, darsga doimo tayyorlanib kelishingni bilaman.



hol takrorlanaveradi. Hatto bir darsda, yangi o'tilajak darsni men gapirib bersam maylimi, deb ham so'radi. Bu ustoz ham, sening nafaqat yangi darsni, balki darslikni boshidan oxirigacha o'qib chiqqaningga ham ishonaman, deya a'lo baho qo'ysi. Shu tariqa

Komilaning kundaligi asossiz beshlar bilan boyib boraverdi.

Bir kuni tarixdan

maktabimizga yangi kelgan o'ta qattiqqo'l va talabchan ustozimiz kirib keldi. Komila odatini kanda qilmagan holda qo'llarini baland ko'tardi.

—Ustoz, uy vazifasini men topshiray,-dedi baland ovozda.

O'qituvchimiz Komiladan familyasini so'radi.

-Nasriddinova,-deya javob berdi Komila baland ovozda.

-Ha, hamma o'qituvchilar maqtashayotgan a'lochi qiz senmisan?- so'radi ustoz ko'zoynagini burnining ustiga biroz tushirib.- Mayli asal qizim,

darsga umuman tayyor emas, qo'l ko'tarsam mendan so'ramaydi, deb o'ylagan ekan. Demak, u doimo shunday qilib kelgan ekan. Siri fosh bo'lgan Komila maktabga ham kelmay qo'ysi. Keyinchalik uning boshqa maktabga o'tib ketganini eshitib qoldik. Aiting-ayting, Komila yangi maktabdoshlari, ustozlarini ham aldamsin. Eng muhimi, keyinchalik birovning xonadoniga kelin bo'lib borgandan keyin bu odatini qilmasin-da!?

## KEYIN

Aziz dugonajonlar, kelinglar, bahordek go'zal va betakror chiroyimiz tabiiyligini asraylik!

## KECH BO'LADI

Istora MAHKAMOVA,  
Respublika Rassomlik kollejining 1-bosqich talabasi:

Hademay ulg'ayib, mustaqil hayotga qadam qo'yamiz va albatta ona bo'lamiz. Menimcha, Onalik baxti har bir qizning orzusi bo'lsa kerak. Sog'lom onadan sog'lom farzand tug'iladi, deyishadi. Shunday ekan, hozirdanoq salomatligimiz haqida jiddiy qayg'urishimiz lozim. Ammo oramizda shunday qizlarimiz ham borki, bu haqda umuman o'ylamaydilar. Kattalar ko'zini shamg'alat qilib, sigaret chekadilar, hatto spirli ichimliklar ham ichib ko'radilar. Ana shunday qizlardan biri bilan suhbatlashganimda, hozircha chekaveraman, turmusha chiqqanidan keyin tashlayman,

deydi. Menimcha, unda ancha kech bo'ladi. Chunki tamaki mahsulotlari tarkibidagi zararli moddalar uning ichki a'zolarini zaharlashga allaqachon ulgurgan bo'ladi.

Xo'sh, bunday noxush holatning oldini olish mumkinmi? Albatta mumkin. Menimcha, ayollar shifokorlari maktablar, litsey va kollejlarda bo'lib, o'smir yoshidagi qizlar bilan tez-tez suhbatlar o'tkazib turishsa, ularga foydali maslahatlar berishsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Shunda chekuvchi dugonalarimiz o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olisharmidi?

## Salomatlik qadri

Aziz bolajonlar, mana ona zaminimizga bahor faslining kirib kelganiga ham hademay ikki oy bo'ladi. Borliq kundan-kunga chiroy ochib,

o'simliklar ham tirik. Iflos suvdan suv ichib, iflos havodon nafas olsalar, o'z tanalariga zararli qo'zg'atuvchisi ko'ptarqalgani esa virusli geppatit «A» dir.

Geppatit asosan jigarni jarohatlashi va sariqlik paydo bo'lishi bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Virus sog'lom kishi tanasiga og'iz orqali tushib, nafas va siyidik bilan ajralib chiqadi. Kasallik

bog'cha, maktab va oilada sanitariya nazorati sust bo'lgan joylarda anjomlarni umumiyyatda ishlashish orqali yuqishi mumkin. Kasallik alomatlari ko'ngil aynish, to'sh ostida kuchli bo'lmagan og'riqlar tarzida kuzatiladi. Zo'rayib, avj olgan paytda jigar va taloq kattalashadi. Bu xastalik bilan og'riqan bemor asosan yotishi, parhez ovqatlar yeb, ko'proq suyuqlik iste'mol qilishi zarur bo'ladi. O'rik sharbati, ko'choy, qatiq juda foydali.

## SO'G'LIGIMIZ

ko'rkmashib boryapti. Dala-yu qirlar yalpiz, jag'-jag', otquloq kabi dorivor o'simliklar bilan to'lib-toshgan. Oyijon va buvijonlaringiz kunda-kunora siz terib keltirgan ko'ktardan chuchvara-yu somsalar pishirishyapti. Chunki ular bu o'tlarda inson salomatligi uchun juda foydali bo'lgan darmondorilar mo'lligini juda yaxshi bilishadi-da.

Lekin ana shu shifobaxsh o'simliklarni qayerlardan terish mumkinligini hamma bolalar ham bilaverishmaydi. Ularni mashinalar serqatnov bo'lgan yo'l yoqalaridan, zavod va fabrikalar, chiqindixonalar atroflaridan terish yaramaydi. Chunki

## O'Z QO'LIMIZDA

deydi Buxoro viloyati, G'ijduvon shahar poliklinikasi shifokori Shuhrat RO'ZIYEV.

Shuningdek, siz aziz bolajonlarga souvuq suv ichmaslikni maslahat berardim. Qaynatilmagan suv ichish oqibatida tif, geppatit, sil kabi og'ir kasalliklarning kelib chiqayotgani hozir hech birimizga sir emas.

Bugun men sizlarga virusli geppatit xastaligi, ya'ni, xalq tili bilan aytganda, sariq kasalligi haqida batafsilroq tushuncha bermoqchiman.



«Dugonalar-bo'lajak onalar»

O'g'iljon ABDULLAYEVA,  
Toshkentdag'i 195 - gimnaziya maktabining  
8 - «A» sinf o'quvchisi:

Men bahorning guzalligini qizlarimizning chiroyiga o'xshataman. Lekin oramizda shunday qizlarimiz ham borki, juda yoshlikdanoq ana shu tabbiy go'zallikka sun'iylik aralashtirishni havas qildilar. Qiz bola bo'lgandan keyin o'ziga oro beradi-da. Axir momolarimiz ham ko'zlariga

o'sma, surmalar surtib

y u r i s h g a n - k u ,  
deyayotgandirsiz?

To'g'ri, qiz

bolaning o'ziga

qarab orasta

b o ' l i b

yurganiga ne

yetsin? Lekin

buvilarimiz

qoshlariga

q o ' y g a n

o ' s m a l a r

bilan turli

x imiyaviy

moddalar dan

i b o r a t


bo'lgan tush va qalamning orasida ot bilan tuyadek farq bor,

axir. Ayrim qizlarimiz turli krem va pudralar, lab bo'yoqlarini ham surtib olishadi. Nahotki, bunday vositalar ularning nafis terisiga koni zarar ekanligini, tez qaritib, yuzlariga ajin tushirib yuborishini bilishmasa ular? Menimcha, ular bu ishlarni onalaridan yashirinch qilishadi. Aks holda onalari ularga to'g'ri maslahat bergen bo'lishardi.

